



## **BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA FOYDALANILADIGAN METODLAR VA ULARNI QO'LLASH USULLARI.**

**G 'afforova Iroda G 'anijon qizi**  
**Qarshiyeva Sevinch Zokir qizi.**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabalari.  
i7091383@gmail.com

Qarshiyevasevinch416@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17341685>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Boshlang'ich sinf ona tili darslarida foydalaniladigan metodlar, qanday metodlar mavjudligi, ularning ta'lim sifati va boshlang'ich sinf darslaridagi ahamiyati, mavjud metodlardan o'qituvchilarning qay darajada foydalana olayotganlari haqida yoritilgan. Shu bilan birgalikda metodlardan foydalanish jarayonida yo'l qo'yiladigan kamchiliklar haqida keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Metod, ko'rgazmali, suhbat, o'yin, mustaqil ish, hikoya, tushunchani ko'rgazmali o'rganish.

**Аннотация:** В этой статье описаны методы, используемые на уроках начальной школы, какие методы доступны, их образовательное качество и значение в классах начальной школы, степень использования этих методов учителями.

**Ключевые слова:** Метод, наглядность, беседа, игра, самостоятельная работа, рассказ, наглядное изучение понятия.

**Abstract:** This article discusses the methods used in primary school native language lessons, what methods exist, their educational quality and importance in primary school lessons, and the extent to which teachers are able to use existing methods. It also discusses the shortcomings in the process of using methods.

**Keywords:** Method, demonstration, conversation, game, independent work, story, demonstration learning of a concept.

**Kirish:** Bugungi kunda dars o'tish jarayonida o'qituvchilar o'quvchilarga mavzuni tushuntirishda ko'plab muamolarga duch kelishmoqda. Buning sababi bugungi kunda yoshlarning fikrlash doirasi kengayib, ularni darslarga bo'lgan qiziqishlarini oshirish birmuncha qiyinlashmoqda. Bu muammoni oldini olish uchun o'qituvchilar doimiy innovatsion vositalar va resurs materiallarni, metodlarni izlaydilar. Bu jarayonni Boshlang'ich sinf ona tili darslari misolida ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu maqolada biz boshlang'ich sinflarning aynan ona tili darslarida qo'llaniladigan metodlarni, umuman olganda metodlar haqida ularning qo'llanilishi haqida ma'lumotlar olamiz. Metodlar qo'llash orqali har bir o'qituvchi darslarni qiziqarli va mazmundor qilib tashkillashtirishlari mumkin. Shu bilan birga o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini ham oshirib ta'lim olish sifatini yaxshilab boradilar.

**Tahlil va natijalar:** Boshlang'ich ta'lim ta'lim olish jarayonining asosi, fundamenti hisoblanadi. Shuning uchun ham, ona tilini o'rganish jarayonida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish masalasini hal qilishda maktabda ona tilini o'rgatishga asos bo'ladigan material va usullar alohida ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ona tili darslari faqatgina savod chiqarish uchun emas balki, mantiqiy fikrlash, yozuv ko'nikmalarini shakllantirishga va nutqiy madaniyatni shakllantirishga asos bo'ladi. Bu jarayonda samarali metodlardan foydalanish va o'qituvchining metodologik yondashuvi

muhim ahamiyat kasb etadi. Maktablarda dars o'tish jarayonida o'qituvchilar darslarni mazmunli, tushunarli va qiziqarli tashkil qilishlari uchun bugungi kunda turli metodlardan foydalanib kelmoqdalar. Bizga ma'lumki **Metod**-so'zi yunoncha tadqiqot, maqsadga erishish yo'li, usuli deganidir. **Metod** - eng umumiy ma'noda - maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyat. Ko'rinadiki, bu o'rinda ham o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va u tashkil etgan o'quvchilarning faol o'quv-bilish faoliyati uyg'unlashadi.

**Bayon qilish metodi** ona tili darslarida qo'llangan asosiy metodlardan biri bo'lgan. Bunda o'qituvchi bayon qilishdan oldin o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzu yuzasidan bilimlarini aniqlab olgan. Bu o'quvchilarni o'qituvchi bayonini kuzatib, tinglab borishga, faol bo'lishga undagan. O'qituvchining bayoni, ya'ni bayon qilish metodida grammatik mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, o'qituvchi ma'lumotlarni o'z so'zlari bilan bayon qilib bergan. Bunda o'qituvchi zimmasiga o'rganilayotgan grammatik mavzuning muhim o'rinlarini aniq, lo'nda, misollar tahlili bilan izchil bayon qilib berish vazifasi yuklangan. Boshlang'ich sinflarda bayon qilish metodi o'quvchilarning yoshi va eslab qolish holatidan kelib chiqqan holda 3—5 daqiqaga mo'ljallangan. Bayon qilish metodini qo'llash holatlari hozir ham uchraydi.

**Suhbat metodi** boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda keng qo'llaniladigan va shu bosqich o'quvchilari tabiatiga mos metod sanaladi. Suhbat metodi savol-javob metodi deb ham yuritilgan. Suhbat metodi o'qituvchidan mavzuning xususiyatini o'zida aks ettirgan o'quv materialini topishni, grammatik mavzuning muhim belgilarini aniqlash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini ajratish, o'xshash va farqli jihatlariga qarab guruhlash, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo'naltirilgan savollar tuzishni, ularni o'quvchilarga izchil berib borishni talab etadi. Boshlang'ich sinflarda suhbat metodining muammoli o'qitish metodi sifatida qo'llanilishi ta'limda o'quvchilarni faollashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Muammoli o'qitish metodiga amerikalik pedagog va psixolog Dyun 1894-yilda asos solgan. Bu metodning maqsadi ilmiy tushunchalarni o'zlashtirishga yordam berishgina emas, balki o'quvchilarning bilim qobiliyatini ham rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini o'stirish hamdir. Bunda suhbat davomida o'qituvchining topshirig'i bilan o'quvchining oldiga biror muammo qo'yiladi va darsda muammoli vaziyat yaratiladi. Bu muammoni o'quvchi oldin egallagan bilimlari asosida hal etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining hayotiy tajribalari kamligi sababli o'qituvchi muammoni hal qilishga yordamlashuvchi savollar beradi. Muammoni o'quvchi hal qila olmasa, uni o'qituvchining hal qilishiga to'g'ri keladi. Shuning uchun boshlang'ich sinfda muammoli o'qitish metodi yarim izlanishli muammoli metod deb ham vuritiladi. Masalan, muammoli o'qitish metodini leksik-semantik va grammatik mashqlarni tashkil etishda ham qo'llash mumkin. Bu metoddan 1-sinfdan boshlab foydalanish mumkin.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida **mustaqil ish metodi** asosan o'rganilgan mavzuni mustahkamlash qismida mashqlar ishlash jarayonida qo'llaniladi. O'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bilan mustaqil ishlarni og'zaki yoki yozma shaklda bajaradilar. Topshiriq qiyin va ko'p vaqtni olmasligi, o'quvchilar kuchi yetadigan qilib, muayyan vaqt ichida bajarishga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Hozirgi kunda turli xil interfaol metodlar ham mavjud, o'qituvchilar bunday metodlardan ham dars mashg'ulotlari davomida foydalanib kelmoqdalar masalan, bunday metodlarga "Aqliy hujum", "Baliq skeleti", "Bilaman. Bilishni xohlamayman. Bilib oldim.", "Blits so'rov", "Bumerang", "Venn diagrammasi", "Zinama-zina", "Intervyu", "Klaster", "Nima uchun?", "Kungaboqar", "Savol-javob", "Suhbat", "Test", "FSMU",



“Yelpig‘ich”, “Zakovatli zukko”, “Gugurt donalari”, “Idrok xaritasi”, “Yagona davra” kabi metodlar kiradi.[3]

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi barcha metodlarning muvaffaqiyati o'qituvchining beradigan savol-topshiriqlariga bog'liq. Y o'l-yo'lakay duch kelgan savollar bilan kichik yoshdagi o'quvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani bermaydi. So'nggi yillar davomida ta'lim tizimiga an'anaviy metodlar bilan birga zamonaviy pedagogik texnologiya usullari kirib keldi. U lardan ona tili ta'limi jarayonida foydalanish bo'yicha yutuqlar qo'lga kiritildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” Toshkent-2017.
- 2.K.Qosimova “Ona tili o'qitish metodikasi”
- 3.To'raqulov Akbar.Sattorova Fazilat.”Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar yordamida dars mashg'ulotlarini o'tish”